YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-SIYOSIY VA MA’NAVIY SOHALARDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Tashmetova Gulnoza Sadriddinovna
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jamiyatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlar, tadqiqot ishlarining mazmun-mohiyati hamda ularning Yangi O‘zbekistonning rivojidagi tutgan o‘rni tahlil qilinadi. Xususan, aholi turmush farovonligini oshirish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoritilib, mazkur islohotlarning mamlakat barqarorligi, demokratik rivojlanishi va xalq farovonligini ta’minlashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, islohot, jamiyat, madaniyat,

Bugungi kunda Respublikamizda ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar davlat taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur islohotlarning bosh maqsadi inson qadri va manfaatlarini ta’minlash, xalq farovonligini oshirish hamda demokratik jamiyat asoslarini mustahkamlashdan iborat bo‘lib, ayniqsa, so‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jamiyat hayotining barcha jabhalarini qamrab oldi. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda ilm-fan, texnika-texnologiya, madaniyat, ta’lim, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda tub o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur’atlari tobora jadallashmoqda. Shuning bilan birga axborotlar asri talablariga muvofiq o‘zgarayotgan turmush tarzimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga ko‘plab yangidan-yangi vazifalarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatib bermoqda. Bu muammolarga qarshi turish uchun bizga samarali yechim va chora-tadbirlar suv va havodek zarur bo‘lib, har qanday xalqning, jamiyatning a’zolari ongida ma’naviy-madaniy saviya va salohiyatni yuksaltirish, ularning dunyoqarashini va tafakkurini o‘stirish bugungi kunda mamlakat rivojida muhim ahamiyatga ega sanaladi. Bu masala xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta’kidlaydilar: “Jamiyatimizning ma’naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyolilarimiz faoliyatini qo‘llabquvvatlash ham biz uchun ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘ladi. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g‘oyat og‘ir sharoitda ilm-ma’rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g‘oyalarini dadil ko‘tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o‘rganishimiz lozim”[1]. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan

yurtimizda olib borilayotgan keng miqyosdagi islohotlar mamlakatimizdagi barcha fuqarolarning orzu-maqsadlarni, xohish-istaklarini o‘zida ifoda etib, butun dunyoda yuksak e’tirof qozonmoqda. Bundan kelib chiqib, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etish har bir fuqaroning fuqarolik burchiga aylanib bormoqda. Davlatimizda amalga oshirilayotgan ma’naviy sohadagi islohotlar har bir fuqaroda yuksak ma’naviyat va axloqiy fazilatlarning shakllanishida asosiy ko‘mak beruvchi vositalardan biri sanaladi. Shu o‘rinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Biz uchun ma’naviyat – insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo‘lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam bo‘lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo‘ladi”[2] – degan ta’kidlarini yodga olishnin o‘zi kifoya. Xususan, ma’naviy-ma’rifiy islohotlar keng ma’noda ta’lim muassasalari, ta’lim-tarbiya maskanlari, axborot-resurs markazlari, madaniyat muassasalari hamda turli istirohat bog‘larida amalga oshiriluvchi faoliyatlarni qamrab oladi. Mamlakatimizda ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni tizimli va izchil amalga oshirilishini ta’minlash borasida ko‘plab qonunchilik hujjatlari, strategiyalar va yo‘l xaritalari qabul qilinmoqda. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati jamiyat taraqqiyotining fundamental asoslarini yangilash, “Inson qadri uchun” tamoyilini hayotga tatbiq etish bilan bir qatorda xalq farovonligini oshirishga qaratilgan. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi hamda “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat va jamiyat boshqaruvini demokratlashtirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish hamda ma’naviy yuksalish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlarning ahamiyati quyidagilardan iborat:

Ijtimoiy-siyosiy islohotlarning ahamiyati:

- **Inson qadri hamda shaxsiy huquqlari:** Davlat siyosatining siyosatining markaziga inson hamda uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini qo‘yish asosiy tamoyilga sifatida belgilandi. Fuqarolar uchun qulaylik tug‘dirish maqsadida fuqarolar murojaatlari bilan ishlashning yangi tizimi ya’ni “Xalq qabulxonalari” tizimi yo‘lga qo‘yilib, davlat organlarining xalq oldidagi mas’uliyati yanada oshdi.
- **Demokratlashuv va ochiqlik:** Davlat boshqaruvi jarayonida oshkoralik, korrupsiyaga qarshi kurashish, so‘z erkinligini ta’minlash, sud-huquq tizimini liberallashrirish, hamda fuqarolik jamiyati institutlari (mahallalar) rolini yanada kuchaytirish orqali jamiyatni tubdan modernizatsiya qilish choralari ko‘rilmoqda.
- **Aholi faravonligi va kambag‘allikni qisqartirish (ijtimoiy himoya):** Aholining ijtimoiy yordamga muhtoj ehtiyojmand qismini qo‘llab-quvvatlash, bandlikni ta’minlash hamda kambag‘allikni qisqartirish, shu bilan bir qatorda ta’lim hamda tibbiyot sifatini yanada oshirish ijtimoiy siyosatning asosi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. So‘nggi yillarda kambag‘allik darajasi sezilarli darajada qisqardi (35 foizdan 6,6 foizgacha) va “Ijtimoiy himoya milliy agentligi” tashkil etilib, xonadonbay ishlash tizimi joriy etildi
- **Yoshlar va xotin-qizlar siyosati:** Yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish hamda yoshlarga oid qonun hujjatlarini qabul qilish orqali ularning shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy huquqlari himoya qilinmoqda.

Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning ahamiyati:

- **Milliy o‘zlikni anglash va ”Uchinchi Renessans” poydevori:** Ma’naviy-ma’rifiy islohotlar tizimini tubdan takomillashtirish orqali Yangi O‘zbekistonda “Uchinchi Renessans”ni bunyod etishning ruhiy kuchi bilan bir qatorda ilmiy-ma’rifiy asoslarini ham yaratmoqda.
- **Milliy qadriyatlar hamda mafkuraviy immunitet:** Yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda tarixiy merosni o‘rganish bilan bir qatorda globallashuv sharoitida mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirishga katta e’tibor berilmoqda.
- **Ma’naviy-ma’rifiy muhit barqarorligi:** Global tahdidlar (terrorizm, ekstremizm) ga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish orqali amalga oshirilmoqda.

• **Madaniy yuksalish:** Ma’naviyat va ma’rifat kengashlari faoliyati orqali jamiyatda o‘zaro hurmat, insonparvarlik, mehr-oqibat va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash, madaniyat hamda san’at sohalarini rivojlantirish choralari ko‘rilmoqda.

Jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati:

• **Barqarorlik va birlik:** Ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligi ta’minlanadi hamda xalqning davlat boshqaruv siyosatiga ishonchi mustahkamlanib bormoqda.

• **Faol fuqarolik jamiyati:** Fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki hamda faolligi oshib bormoqda.

• **Inson kapitalini rivojlantirish:** Ta’lim hamda ma’naviyat sohasidagi islohotlar barkamol avlodni tarbiyalash hamda xalqning intellectual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, respublikamizda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning turli sohalarda, jumladan, ijtimoiy sohada amalga oshirilishi mamlakatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash bilan bir qatorda fuqarolarning farovonligini oshirish hamda hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning yaqin yillarda qabul qilgan farmonlari va qarorlari, ayniqsa, ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, mehnat bozoridagi islohotlar hamda aholining gender tengligi kabi masalalar davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga aylangan. Xususan, Prezidentning “Ijtimoiy himoya sohasini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2017-yil 6-dekabrda imzolagan farmoni, ijtimoiy himoya tizimini tubdan takomillashtirish bilan bir qatorda aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bir qator muhim chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu farmon, ayniqsa, kam ta’minlangan oilalar, nafaqaxo‘rlar, imkoniyati cheklanganlar, nogironlar va boshqa ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Prezidentning “Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yilda imzolagan qarori esa tibbiyot sohasini isloh qilishni, shu bilan birga yuqori texnologiyali tibbiy xizmatlarni fuqarolar uchun yanada qulay qilishni nazarda tutadi. Bu qaror sog‘liqni saqlash tizimiga yangicha yondashuvlar, aholi salomatligini yaxshilash, tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish va zamonaviy usullarni, zamonaviy tibbiy jihozlarni joriy etish kabi maqsadlarni nazarda tutadi. Ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohadagi islohotlar Yangi O‘zbekistonni huquqiy-demokratik hamda erkin fuqarolik jamiyatiga aylantirish bilan bir qatorda xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashining ham asosiy kafolati hisoblanadi. Milliy ma’naviyatga tayanish uchun inson, avvalambor, o‘zligini anglab yetishi lozim bo‘lib, bu milliy o‘zligimizni anglab yetishga bo‘lgan kuchli ehtiyoj natijasi hisoblanadi.

Umuminsoniy qadriyatlar har doim milliy qadriyatlar bilan oziqlanib, milliy ma’naviyatni shakllantirish bilan bir qatorda rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bu esa milliy g‘oya negiziga tayanishda butun insoniyatni birlashtirib turuvchi mushtarak omil sanaladi. Jamiyatimizning ustuvor vazifalaridan biri ham barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat bo‘lib, ma’naviy barkamol shaxslargina buyuk kelajakni yaratishga qodir bo‘ladilar. O‘zbekistonda faol demokratik yangilanishlar va jamiyatning barcha sohalarida jadal islohotlar hamda mamlakatni modernizatsiya qilish davom etmoqda. Bunda jamiyatimizda barqaror taraqqiyot, ijtimoiy-siyosiy hayotni, davlat va jamiyat boshqaruvini yanada isloh etish, xususan, O‘zbekiston Respubliasining Konstitutsiyasida aniq va ravshan belgilab berilgan inson manfaatlari, erkinligi, ehtiyojlari, daxlsizligi hamda farovonligini to‘la ta’minlash, parlamentarizm, ko‘ppartiyaviylik, va plyuralizmni siyosiy hayotda to‘laroq joriy etilishi chuqur ahamiyat kasb etib bormoqda.

Bugungi kunda ijtimoiy siyosatdagi tubdan yangilanishlar, iqtisodiy sohadagi o‘zgarishlar, shahar hamda qishloqlarimizning obodonlashuvi, ko‘rkamlashuvi, xalqimizning turmush tarzi farovonlashib, hayot kechirish darajasi yuqorilashib borishi mazkur tamoyillarning naqadar to‘g‘ri ekanligini isbotlamoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta’kidlashicha, “Biz bundan buyon ham aholimizning daromadi va turmush darajasini muntazam yaxshilab borishga jiddiy ahamiyat qaratamiz. Yurtimizda ijtimoiy muammolarni hal etishning o‘ziga xos yangi tizimi yaratilganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz. “Temir daftar”, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, “mehr daftari”,

“mahallabay” ishlash usullari aynan shu maqsadda joriy etilmoqda. Islohotlar doirasida qabul qilingan yirik dasturlar jamiyatimizda ijtimoiy muhitni yaxshilash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilmoqda”[3]. Respublikamiz olimlarining ta’kidlashicha, “Islohotlar markazida insonning oliy qadriyat sifatida baholanishi mamlakatimiz strategik vazifalariga hamohangdir. Xususan, bu boradagi barcha o‘zgarishlarning mazmun - mohiyati ham inson va uning qadr-qimmatini ko‘tarish bilan bog‘liq. Xolbuki, ushbu qadriyatlar asosida shakllangan jamiyat, mohiyatiga ko‘ra, xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillariga mos keladi, ularning milliy darajada namoyon bo‘lishi uchun imkon yaratadi. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, har bir shaxs, turli qatlam vakillarining umumiy maqsadmuddaolarini ifodalaydi”[4]. Ushbu islohotlar natijasida mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy sohalarda keskin o‘zgarishlar hamda taraqqiyot kuzatila boshlandi.

O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash tizimida ham tub o‘zgarishlar yuz bermoqda. Mamlakatda sog‘liqni saqlashni yanada yaxshilash, tibbiy xizmatlarning sifatini oshirish, kasalliklarning oldini olish va aholining salomatligini saqlashga, on ava bolalar o‘limini kamaytirishga, ayollar salomatligini ta’minlashga oid yangi dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, tibbiy texnologiyalarni rivojlantirish, tibbiyot birlashmalarini yangi uskuna va jihozlar, zamonaviy tekshiruv jihozlari bilan ta’minlash, sog‘liqni saqlash sohasidagi xodimlarning malakasini muntazam oshirish, shuningdek, tibbiyotda xalqaro standartlarni joriy etish islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan sanaladi. Jamiyatda shaxsning ijtimoiy manfaatlarini to‘liq ta’minlanishi hayot-mamot vazifaga aylanib, inson qadri va ijtimoiy mavqeini yuqori darajada ta’minlash muhim insonparvarlik tamoyili sanaladi. Ijtimoiy siyosatning insonga beradigan foydasi va ko‘magi muhim xususiyat bo‘lib, shaxsning jamiyatdagi maqomini yuksaltiradi hamda shaxs-jamiyat-davlat tamoyilining hayotbaxsh amaliy ro‘yobida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hozirgi zamon vatanimiz yoshlarining qadriyatli yo‘nalishlarini, intilishlarini bilish o‘z-o‘zidan dolzarb bo‘lib qolmasdan, balki O‘zbekiton jamiyati rivojlanishining mavjud tendensiyalari va umumiy yo‘nalishini tushunish uchun lozimdir. U nafaqat yoshlarning, balki jamiyatning ham bugungi holati to‘g‘risidagi tasavvurlarini, balki keyinchalik o‘z mamlakatining fuqarosi sifatida ularning turmush tarzida va real xulq-atvorida namoyon bo‘luvchi ularning o‘ziga-o‘zi baho berishi, o‘zini-o‘zi identifikatsiya qilishi, o‘zini-o‘zi refleksiya qilishi xususiyatlarini o‘z ichiga olishi tufayli ham bunday bilishning ahamiyati ortib boradi. Vatanimizning kelajagi, xalqimiz ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro-e’tibori, birinchi navbatda, farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, kelajakda qanday inson bo‘lib mustaqil hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim. Bugungi kunda yoshlar muammosi – ilmiy tahlilning asosiy va dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Bizningcha, yoshlarning qiziqishlari va orzu-umidlari, ularning o‘z kelajagiga qarashlari, jamiyatda ular qanday o‘rinni egallashni xohlashi to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lish nihoyatda zarur masalalardan biri sanaladi.

So‘nggi yillar davomida Prezidentimiz tomonidan taqdim etilgan “Ta’lim tizimini takomillashtirish va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga doir”, “Gender tengligini ta’minlash va ayollarni jamiyat hayotiga faol jalb etish”, “Mehnat bozorini isloh qilish va yangi ish o‘rinlarini yaratish” kabi farmon va qarorlar ijtimoiy sohada yanada tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ushbu farmonlar respublikamizda yoshlar, ayollar, bolalar, imkoniyati cheklanganlar hamda barcha fuqarolarni turli yo‘nalishlarda qo‘llab-quvvatlashni, shuningdek, mehnat bozorida teng imkoniyatlarni yaratishni maqsad qilib qo‘yadi. Ushbu islohotlar natijasida respublikamizda ijtimoiy, siyosiy hamda ma’naviy sohalarda keskin o‘zgarishlar va taraqqiyot kuzatila boshlandi. Jamiyatda shaxsning ijtimoiy manfaatlarini to‘liq ta’minlanishi hayot-mamot vazifaga aylanib, inson qadri va ijtimoiy mavqeini yuqori darajada ta’minlash muhim insonparvarlik tamoyili sanaladi. Ijtimoiy siyosatning insonga beradigan nafi va ko‘magi nafaqat muhim xususiyat bo‘libgina qolmay, shaxsning jamiyatdagi maqomini yuksaltiradi hamda shaxs-jamiyat-davlat tamoyilining hayotbaxsh amaliy ro‘yobida asos sifatida xizmat qiladi.

Respublikamizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi” doirasida o‘tgan davr mobaynida davlat hamda jamiyat hayotining barcha

sohalarini isloh qilishga qaratilgan uch yuzga yaqin qonun, to‘rt mingdan ziyod Prezident qarorlari qabul qilindi. Shu bilan birga inson huquqlarini ta’minlash, davlat organlarining hisobdorligi hamda ochiqligini kuchaytirish va fuqarolik institutlari, ommaviy axborot vositalarining o‘rni, aholi hamda jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash hamda xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash shu bilan bir qatorda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashlik etish va hududlarrni jadal rivojlantirishni ta’minlash bo‘yicha samarali choralar ko‘rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi. Aholi uchun yangi ish o‘rinlari hamda kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy hamda ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlash sifat jihatidan yuqori bosqichga chiqdi. Dunyo miqyosidagi murakkab jarayonlarni hamda respublikamiz bosib o‘tgab taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keying yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning faravonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish hamda tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini so‘zsiz ta’minlash bilan bir qatorda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlar belgilangan.

Respublikamizda ijtimoiy, siyosiy hamda ma’naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning barqaror taraqqiyotini ta’minlashga qaratilgan kompleks strategik jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, ijtimoiy yo‘nalishda aholining sog‘lom turmush sifati hamda darajasini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish, bandlikni ta’minlash, ta’lim hamda sog‘liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish orqali inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Siyosiy sohada demokratik institutlarni mustahkamlash, davlat boshqaruvi organlari faoliyatida ochiqlik va shaffoflik, adolatlilik tamoyillarini keng joriy etish, fuqarolik jamiyati institutlari rolini kuchaytirish hamda qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

Mazkur jarayonlar davlat va jamiyat boshqaruvida samaradorlikni oshirish bilan bir qatorda aholining siyosiy faolligi hamda huquqiy madaniyatining yuksalishiga xizmat qilmoqda. Ma’naviy sohada esa milliy qadriyatlar, tarixiy meros va an’analarni asrab-avaylash, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur hamda umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari ustuvor yo‘nalishlardan birisifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, madaniyat, san’at, ilm-fan va ma’rifatni rivojlantirish orqali jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga katta e’tibor berilmoqda. Umuman olganda, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda olib borilayotgan islohotlar o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular Yangi O‘zbekistonni barpo etish, fuqarolarning farovon turmush tarzini ta’minlash hamda mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashning muhimomili sanaladi. Kelgusida mazkur islohotlarning izchil davom ettirilishi jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Xalqimizning roziligi bizning faolyatimizga berilgan eng oliy bahodir”. 2- jild. -Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018. –508 b.

3. Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyotva farovonlik asosi. Prezident SH.M.Mirziyoyevning vatanimiz mustaqilligining 30 yillik bayramiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqi. 31.08.2021.

4. Q.Nazarov, M.Quronov va boshq. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2010.

5. Mirziyoyev Sh.M. “Ijtimoiy himoya tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi farmoni. 2017. Toshkent.

6. Mirziyoyev Sh.M. “Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishga doir kompleks choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Sog‘liqni saqlash vazirligi nashri.